# MAKTABGACHA TALIM MUASSALARIDA SPORT MUSOBOQALARINI TASHKIL QILISH VA O`TKAZISH METODIKASI

***Mullabayeva Mashxura Samijanovna***
*Namangan davlat universiteti dotsenti*
***Tursunova Dilshoda Toxirjon qizi***
*Namangan davlat universiteti o'qituvchisi*
***Komilova Malohat Bahodir jon qizi***
*Namangan davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalar jismoniy qobilyatlarini oshirish va musoboqa shartlarida namoyish qilishlari hamda musoboqalarni tashkil qilish va o'tkazish metodlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy rivojlantirish, jismoniy qobilyat, nizom, ko'nikma, jismoniy tarbiya, axloqiy, estetik.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi. Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi. Maktabgacha ta'lim. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini

zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Quyidagilar, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi quyidagilarni nazarda tutgan holda Konsepsiyaning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish; maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish; bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish; maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta’minlash; maktabgacha ta’lim tizimiga maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish; maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning sog‘lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta’minlash g‘oyat dolzarb vazifa edi.

Bundan tashqari jismoniy tarbiya dasturida bolalarning muayyan davr ichida egallangan harakat ko`nikmalarini aks yyettirilishi quvnoq harakatli o`yinlar va xilma xil jismoniy mashqlar orqali musoboqalarni tez-tez tashkil etib turish lozim. Muntazam jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida o`zlashtirilgan bu harakat formalari maxsus tayyorgarlikni talab etmaydi va musoboqa shartlarida tabiiy ravishda kirishib ketadi. Bolalarni kayfiyatini yaxshilaydi, zavq bag`ishlaydi.

Bolalar jismoniy qobilyatlarini musoboqa shartlarida namoyish qilishlari mumkin. Ular o`z kuchlariga yarasha musoboqalarda yugurish, uloqtirish, sakrash, pretmetlar bilan bajariladigan mashqlar va h.k., o`yin estafetalarda, sport o`yinlarida qatnashadilar. Musoboqa shartlarida quvnoq o`yinlardan foydalanish mumkin. Bularning barchasi har bir yosh guruhlari va umuman barcha gruppalarni yoshini hisobga olgan holda musoboqa shartlarini moslash kerak.

Musoboq davomiyligi 45-60 daqiqadan oshmasligi lozim. Ular musoboqa shatlarini bajarishda epchillik, kuchlilik, chidamlilik sifatlarini namoyish etadilar. Ayniqsa musoboqada ularning ota-onalarini ham jalb qilinsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

**Musobaqa hujjatlari**

Uychi tumanidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari orasida 2024-yil 12-15-mart kunlari o`tkazilgan “**Sog`lomjon–polvonjon**” tuman musoboqasi.

**NIZOMI**

**1. Maqsad va vazifalar:** “Umum halq navro’z bayrami kuni”ga bag`ishlab tumandagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni sog`lomlashtirish bo`yicha amalga oshirilayotgan ishlarni targ`ibot qilish orqali bolalarni sportga muntazam jalb etish.

**2. Musoboqalarning o`tkazish muddati:** musoboqalar 2024 yil 12-15 mart kunlari soat 10.00 dan quyidagi o’yinlar bo`yicha o`tkaziladi

(1-jadval)

| | **Sport turi** | **Sportchi soni** | | | **O`tkazish joyi** | **Vaqti** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 5 yosh | 6 yosh | 7 yosh | | |
| | Kartoshka ekish va yig’ishtirish o’yini. | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | Uychi tumani Uychi ShFY Oybek MFY | 12-15.03. 2024 |
| | Bayroqcha bilan estafeta | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | | |
| | Kegli bilan estafetasi | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | | |
| | Futbol to`pi bilan nishonga urish | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | | |
| | Argimchoq bilan sakrash estafetasi | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | 2 ta o`g`il 2 ta qiz bola | | |

**3. Musoboqalarni o`tkazishga rahbarlik qilish:** Sport musoboqalariga tayyorgarlik ko`rish va o`tkazishga umumiy rahbarlik qilish, ushbu Nizomda tasdiqlangan Uychi tumandagi maktabgacha ta’limi bo’limi tomonidan amalga oshiriladi.

**4. Musobaqa sarf-harajatlari:** Musoboqalarga ishtirok etish uchun barcha sarf xarajatlar safarga yuboruvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

**5. G`oliblarni taqdirlash:** Musoboqa g`oliblari tumandagi maktabgacha ta'limi bo'limi tomonidan sovg`a hamda 1-,2-,3- darajali diplomlar bilan taqdirlanadilar.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M.(2021) Yangi O`zbekiston strategiyasi.-T.:― O`zbekiston‖,

2. Усмонхўжаев Т, Мелиев Х. Мактабгача таьлим муассасаларида жисмоний тарбия машғулотлари. Тошкент: 2004.

3. O'rmonjonovich, Inomov Faxriddin. "Problems of Development of Physical Culture and Sports after Independence." *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture* 3.12 (2022): 58-62.

4. Иномов, Фахриддин Ўрмонович. "Стратегия подач в современном настольном теннисе." *Образование наука и инновационные идеи в мире* 32.1 (2023): 47-50.

5. Веденина, О. А. "ИНТЕРЕС К САМОСТОЯТЕЛЬНЫМ ЗАНЯТИЯМ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ СТУДЕНТОВ РГППУ INTEREST TO INDEPENDENT OCCUPATIONS PHYSICAL CULTURE OF STUDENTS RSPPU." *ББК Ч404. 1я431 Н53* (2019): 203.

6. Jurayev, Vohidjon, and Yoqubjon Ermatov. "BASICS OF ADJUSTING PHYSICAL EXERCISES FOR THE AGE OF STUDENTS WHEN INTRODUCING A HEALTHY LIFESTYLE TO STUDENTS IN THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTEM." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.5 (2023): 1042-1045.

7. Жураев, Вохиджон Мухаммедович. "СПОРЧИЛАРНИНГ ДАЪВОГАРЛИК ДАРАЖАСИ ВА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРИНИНГ ПСИХОЛГИК ХУСУСИЯТЛАРИ." Academic research in educational sciences 4.TMA Conference (2023): 894-900.

8. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "The importance of functional training in the athlete training system." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 261-264.

9. Toxirjonovich, Arabboyev Qaxramon, et al. "THE ROLE OF SPORT IN PEOPLE'S HEALTH." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).

10. Arabboyev, Q. T. "Sportchilarni tayyorlashda funksional tayyorgarlikning ahamiyati: 10.53885/edinres. 2022.75. 29.012 QT Arabboyev." Научно-практическая конференция. 2022.

11. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "SPECIFIC FEATURES OF THE APPROACH TO STUDENTS IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS ON THE BASIS OF THE PRINCIPLE OF INDIVIDUALIZATION." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 269-273.

12. Араббоев, К. Т. "Особенности адаптации студентов высшей физкультурно-педагогической школы к учебной и спортивной деятельности." Педагогические науки 5 (2011): 128-131.

13. MURATOVA, GULIYA RIMOVNA, RUZEL MULLAKHMETOVICH KHABIBULLIN, and AYGUL URALOVNA BAKIROVA. "COORDINATION ABILITIES OF POWERLIFTERS." Будущее науки-2019. 2019.

14. Rashitovna, Muratova Gulnara. "Problems of Using the Technology of Integrated Modular Training of Students in Physical Education Classes at The University." Genius Repository 26 (2023): 104-106.

15. Муратова, Г. Р. "ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ." Science Promotion 4.1 (2023): 30-35.

16. Муратова, КГПИ Г. "АКТИВИЗАЦИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ ПУТЁМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОРЕВНОВАТЕЛЬНО-ИГРОВОГО МЕТОДА." Science Promotion 4.1 (2023): 24-29.

17. Муратова, Гулнара, and Вагаршак Данелян. "ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В СРЕДНИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2.22 (2023): 23-27.

18. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir, Gafurov Abduvohid Makhmudovich, and Yuldasheva Jamilakhan Mukhtorovna. "The role of gymnastics in the educational process." Open Access Repository 8.12 (2022): 5-8.

19. Mukhtorovna, Yuldasheva Jamilakhan. "EFFECTIVE WAYS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF SPORTS." Open Access Repository 8.12 (2022): 693-697.

20. УПРАЖНЕНИЯХ, САМОКОНТРОЛЬ В. ФИЗИШЕСКИХ. "JISMONIY YUKLAMALARDA O'ZINI-O'ZI NAZORAT." НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021 1: 722.

21. Умарова, Ф. А., З. А. Умарова, and А. А. Умаров. "Повышение эффективности обучения за счет использования электронного обучения в классе." Библиотека в пространстве современной культуры. 2020.

22. Умаров, АА-К. "СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПРЕДСТАРТОВОЙ МЫШЕЧНОЙ РАБОТЫ СПОРТСМЕНА КАК СПОСОБ ПОДГОТОВКИ К УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫМ ЗАНЯТИЯМ И СОРЕВНОВАНИЯМ." ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ В СИСТЕМЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ. 2021.

23. Artikovna, Abdurahmonova Malohatkhan. "USE OF INTERACTIVE METHODS AND THEIR EFFECTIVENESS IN TEACHING CHEMISTRY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.2 (2023): 507-510.

24. Умаров, Абдусамат Абдумаликович. "Феноменологическое Поле Гендерной Идентичности Спортсменок." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3.12 (2022): 15-18.